



Ўзбекистон Республикаси
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги



Ўзбекистон Республикаси
мактабгача таълим вазирлиги

**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI OLIY VA ЎRTA
MAHSUS TAЪLIM VAZIRLIGI
BUKHORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА
КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ
ЁНДАШУВЛАР: ИСТИҚБОЛАР,
МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР**
(Республика илмий-амалий анжумани)



БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябрь

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА
ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА
КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВЛАР :
ИСТИҚБОЛЛАР, МУАММОЛАР ВА
ЕЧИМЛАР**

*(Республика масофавий илмий-амалий
анжумани)*

БУХОРО, 2020 йил, 3-ноябрь

“Мақтабгача таълимда компетенциявий ёндашувлар:
истиқболлар, муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги
Республика илмий-амалий анжумани илмий моқола ва
тезислар тўплами (2020-йил, 3-ноябрь). Бухоро: 2020 йил.

Бош муҳаррир:

Педагогика фанлари номзоди, доцент Г.А.Камилова

Тақризчилар:

Авезов С.С. – ф.ф.н, доц.

Тўхсанов Қ.Р. – ф.ф.н, доц.

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:

М.Б.Шарипова – Мақтабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

Н.Н.Ҳамроева - Мақтабгача таълим кафедраси ўқитувчиси

Ушбу Республика масофавий илмий-амалий анжуманининг илмий мақола ва тезислари тўпламида Ўзбекистон Республикасининг “Мақтабгача таълим ва тарбия тўғрисида”ги Қонуни, “Ўзбекистон Республикасида илк ва мақтабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган Давлат талаблари”, “Илк қадам” Давлат ўқув дастури, шунингдек, мақтабгача таълим тизимини ривожлантириш борасидаги ислохотларда белгиланган, соҳада амалга оширилаётган ишларни таҳлил қилиш ва бу борадаги тақлифларни ишлаб чиқиш бўйича илмий, амалий ва услубий тавсиялар ишлаб чиқилган.

Мазкур тўпламга киритилган мақолалар ва тезисларнинг мазмуни, статистик маълумотлар ҳамда билдирилган фикр ва мулоҳазаларга муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.

Бухоро - 2020 йил, 3-ноябрь

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI OILADA
TARBIYALASHDA SHARQONA VA G'ARBIY
QARASHLAR**

*BuxDU maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi
S.Z.Jabborova,
G.Salimova, talaba (BuxDU)*

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaviy munosabatlarni shakllantirish oilaviy qadriyatlarning qadriyat sifatida bola ongida shakllanishi va bunda pedagog-tarbiyachilar bilan ota-onalar hamfikrligi, shuningdek, oilaviy qadriyatlarni bola tasavvurida shakllantirishda G'arb ta'lim tizimi va Sharqona odob-axloq qoidalari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, pedagog-tarbiyachilar, tarbiyalanuvchilar, ota-onalar.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования семейных отношений у дошкольников, формирование семейных ценностей в сознании ребенка как ценности, консенсуса учителей и родителей, а также западной системы образования и восточной морали в формировании семейных ценностей в воображении ребенка.

Ключевые слова: Организация дошкольного образования, воспитатели, школьники, родители.

Annotation: The article shows the formation of family relationships in preschool children, the formation of family values in the child's mind as a value, and the consensus of teachers and parents, as well as the Western education system

and Eastern morality in the formation of family values in the child's imagination.

Keywords: Preschool organization, educators, students, parents.

Oila-bu qadriyatlar maskani. Oila-bu mehr-muhabbat oshyoni. Oila-avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odat, an'ana va qadriyatlarning a'zim beshigidir. Shunday ekan, biz ham oila va oilaviy tarbida ijtimoiy munosabatlari rivojlanishining tarixiy shart-sharoitlari hamda bolalarda oilaga nisbatan dastlabki

tasavvurlar, qadriyatlar, oilaviy munosabatlarning shakllanib borish bosqichini kuzatamiz.

Biz oilaviy qadriyatlar bola ongida shakllanishida, albatta, o'zimizga xos bo'lgan Sharqona tarbiya bilan birga G'arb davlatlarining ta'lim yo'nalishiga ham birdek murojaat qilamiz.

Oila tushunchasining shakllanishi va rivojlanishida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash orqali oila a'zolarining rioya qiluvchi me'yorlari, ota-ona va bolalar, yuqorida aytganimizdek, ta'lim va tarbiya hamjihatligi ularni amalga oshirishda mas'uliyat hissi va e'tiborli yondashuv muhim.

Qadriyatlar bu- oilada huquq va majburiyatlar taqsimlanishi, tartiblashtirishga imkon bergan holda tarbiyalanayotgan farzand kamoloti o'z o'rnida katta ahamiyatga ega. Bizga ma'lumki, sharqda o'rta asrlarda, islom ta'limotida ham oila har doim muqaddas qo'rg'on, shuningdek, tarbiyaning muhim instituti hisoblanib kelingan. Oilada bolaning his tuyg'ulari: o'zaro ishonch, mehr-muhabbat, itoatkorlik, hurmat, kamtarlik kabilar shakllanadi.

Sharq mutafakkirlarining fikrlarini kuzatadigan bo'lsak, pedagogika fani nuqtai nazariga mos keluvchi oilaviy munosabatlar va qadriyatlar shakllanishidagi ko'plab ezgu g'oyalarni uchratishimiz mumkin.

Ajdodlarimiz Abu Hamid al-G'azzoliy bolalarda yoshligidan kamtarlik, kamsuqumlik, adolatlilik ruhini uyg'otish va o'sha ruhda tarbiyalash orqali kelajakda bola o'z xohishlarini tiyishni o'rganishi ta'kidlab o'tiladi. Shuningdek, G'azzoliy tarbiyada taqlid qilish yo'li bilan ma'naviy sifatlarni tarbiyalash zarurligiga e'tibor qaratadi va buni zarurat deb hisoblaydi. Maktabga qadam bosayotgan bola ongida oila obrazi 2 xil namoyon bo'ladi. Ya'ni, bolada badiiy adabiyotlar, multfilm, ertaklardagi ideal oila obrazi bilan birga o'z oilasida shakllangan his tuyg'ular va o'sha muhit asosida shakllangan oila

obrazlaridir. Shuning uchun ham bolalarga to'g'ri xulq-atvor, otanalar o'rtasidagi munosabatlar namunasini berish juda muhim sanaladi. Oila va maktabgacha ta'lim markazlarining birgalikdagi harakatlari maktabgacha yoshdagi bolalarda oilaning ijobiy ko'rinishini shakllantirishda yordam beradi. Maktabgacha

yoshdagi bolalar bilan nafaqat oilada balki maktabgacha ta'lim markazida ham erkin suhbatlashish bolalarning fikrlarini tinglash va ular bilan do'stona , ularning kelajakda o'z fikrini be'malol izohlay olishida hech qanday to'siqlar vujudga kelmasligi uchun zamin bo'ladi.

G'arb davlatlaridagi ta'lim tizimida dunyo tan olgan yo'nalishlar bor albatta, lekin muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek, ta'lim va tarbiya ajralmasdir. Masalan, osmonda uchayotgan qushni oladigan bo'lsak uning bir qanoti yaralansa ikkinchi qanoti bilan uzoqqa bora olmaydi. Shunday ekan, ta'limni tarbiyadan tarbiyani esa ta'limdan ayro tasavvur qilib bo'lmaydi. Biz g'arb davlatlaridan Yaponiyadagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, u yerdagi ota-onalarning kuniga 4 soatdan ko'proq vaqt davomida ishda bo'lishlari bu bolalarini maktabgacha ta'lim tashkilotiga berishlari uchun asos bo'ladi. Yaponiyadagi maktabgacha ta'lim markazlarida 3 yoshgacha bo'lgan bolalar alohida va 3 yoshdan katta bo'lgan bolalar alohida guruhlarga bo'linadi. Chunki 3 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhlari o'yinlar, so'z mashqlari bilan boyitilgan kun tartibidan iborat bo'ladi. 3 yoshdan katta bo'lgan bolalar ko'proq jismoniy mashqlar shuningdek, maktabga tayyorgarlikni o'rganishadi, chet tillarini o'rgana boshlashadi hamda ko'proq tasviriy va ijodiy qobiliyatlarini shu yoshda shakllantirishadi.

Yoshdan qat'iy nazar tarbiyachilar bolalar bilan o'tkaziladigan mashqlarda teng qatnashishadi. Har bir maktabgacha ta'lim markazida o'yin maydonchalari va suzish havzalari bo'lishi shart. Bola ham ruhan, ham jismonan teng ulg'ayishi uchun bular muhim hisoblanadi. Yaponiyadagi har bir maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqiy va badiiy qobiliyatni rivojlantirish uchun o'tkaziladigan mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratiladi. Bu yurtida ta'lim G'arb texnologiyalari asosida tashkil qilingan bo'lsa hamki, sharqona odob-axloq qoidalariga amal qilingan holda bolalar tarbiyalanadi.

Odatda, kuzatishimiz mumkinki, Yaponiyadagi bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ichki qismi juda kamtarona, agar ichkariga kiradigan bo'lsak, avvalo, katta zalga duch kelamiz. Zalning bir tarafida shiftdan pol qismigacha deraza, keyingi tarafida esa xona eshiklari, asosan, bitta katta xona ham

o'yin uchun, ham ovqatlanish uchun, ham dam olish uchun mo'ljallangan. Bolalar dam olish vaqtida qalin to'shaklarni polga yoyishadi. Bu oddiy ko'rinsa-da aslida bolalarning sog'lig'i uchun juda foydali, chunki bu yoshdagi bolalar ayni jismoniy rivojlanish pallasida bo'lishadi, ularning umurtqa pog'onasi tekis ya'ni, o'z fiziologik egriliklari bilan rivojlanishi uchun pediatrlar ham bolalarni rivojlanish bosqichida qattiq va tekis to'shakda dam olishlarini tavsiya berishadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ovqat menyusiga juda ham e'tiborli bo'lishadi. Doimo sut mahsulotlari, sabzavotlar va ko'katlar, shuningdek, mevalar yoki mevali sharbatlar bo'lishi zarur.

Yaponiyadagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'rishimiz mumkinki, guruhlar 8-10 kishilik bo'ladi va har 6 oyda bu guruhlar qayta tarkib topadi. O'z navbatida bu ham har bir bola bilan individual shug'ullanish, shuningdek, bolalar bir -biri bilan chiqishishi imkonini beradi.

Yaponiya maktabgacha ta'lim tashkilotlarida asosiy e'tibor ta'lim emas, aksincha, tarbiya hisoblanadi. Bolaning jamoada o'zini qanday tutishga o'rgatish ekanligini ko'ramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2707-sonli qarori. 2016 yil 29 dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-sonli qarori. 2019 yil 8 may.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. T.: "Fan va texnologiya", 2012.